


NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI
(2022- yil yanvar-dekabr oylari uchun dastlabki ma`lumot)

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1 276,1 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 117,0 % ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI
(yanvar-dekabr, mln.AQSh dollari)

Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSA da eksport hajmi 581,2 mln.AQSh dollariga (17,1 % ga ko'paydi) va import hajmi 694,9 mln.AQSh dollariga (16,8 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 113,7 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR
(2022- yil yanvar-dekabr, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

| Top-10 davlatlar | TSA | Eksport | Import | Ulushi, % da |
|-----------------------|-------|---------|--------|--------------|
| Rossiya Federatsiyasi | 409,4 | 297,4 | 112,0 | 32,1 |
| Xitoy | 270,7 | 39,9 | 230,8 | 21,2 |
| Qozog'iston | 112,5 | 44,6 | 67,9 | 8,8 |
| Turkiya | 101,8 | 41,3 | 60,6 | 8,0 |
| Qirg'iz Respublikasi | 83,6 | 63,0 | 20,6 | 6,6 |
| Germaniya | 35,4 | 9,0 | 26,5 | 2,8 |
| Belorussiya | 34,7 | 2,5 | 32,2 | 2,7 |
| Polsha | 24,7 | 11,4 | 13,3 | 1,9 |
| Litva | 20,4 | 5,3 | 15,1 | 1,6 |
| Koreya Respublikasi | 20,0 | 3,3 | 16,7 | 1,6 |

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 76 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasida (32,1 %), Xitoy Xalq Respublikasida (21,2 %), Qozog'istonda (8,8 %), Turkiyada (8,0 %), Qirg'iz Respublikasida (6,6%), Germaniya (2,8 %) va Belorussiya (2,7 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Respublika Koreya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (409,4 mln.AQSh.dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (270,7 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-dekabr, ming.AQSh.dollari)**



| Davlatlar | 2020- y. | 2021- y. | 2022- y. |
|------------------------------|-----------------|-----------------|-----------------|
| Rossiya Federatsiyasi | 224122,2 | 309055,2 | 409432,9 |
| eksport | 136314,2 | 206147,6 | 297439,2 |
| import | 87808,0 | 102907,6 | 111993,7 |
| saldo | 48506,2 | 103240,0 | 185445,5 |
| Xitoy | 214357,4 | 263466,2 | 270706,9 |
| eksport | 43001,9 | 75618,6 | 39923,3 |
| import | 171355,4 | 187847,6 | 230783,7 |
| saldo | -128353,5 | -112229,1 | -190860,4 |
| Qozog'iston | 91688,4 | 108800,0 | 112524,3 |
| eksport | 44390,1 | 41668,9 | 44615,0 |
| import | 47298,3 | 67131,1 | 67909,4 |
| saldo | -2908,2 | -25462,2 | -23294,4 |
| Turkiya | 56745,1 | 105287,3 | 101830,6 |
| eksport | 17452,1 | 40236,4 | 41256,8 |

| | | | |
|-----------------------------|----------------|----------------|----------------|
| import | 39293,0 | 65050,9 | 60573,9 |
| saldo | -21840,9 | -24814,5 | -19317,1 |
| Qirg'iz Respublikasi | 98525,8 | 78056,8 | 83631,2 |
| eksport | 89857,8 | 68113,9 | 62989,2 |
| import | 8668,1 | 9942,9 | 20642,0 |
| saldo | 81189,7 | 58171,0 | 42347,1 |
| Germaniya | 20296,4 | 16248,6 | 35444,4 |
| eksport | 3798,8 | 2943,3 | 8990,5 |
| import | 16497,6 | 13305,3 | 26453,8 |
| saldo | -12698,9 | -10362,0 | -17463,3 |
| Belorussiya | 3138,4 | 21638,1 | 34676,6 |
| eksport | 2111,6 | 2282,4 | 2522,4 |
| import | 1026,8 | 19355,7 | 32154,2 |
| saldo | 1084,7 | -17073,3 | -29631,7 |
| Polsha | 9629,4 | 17191,3 | 24704,3 |
| eksport | 7159,4 | 7448,1 | 11433,0 |
| import | 2470,0 | 9743,2 | 13271,4 |
| saldo | 4689,5 | -2295,1 | -1838,4 |
| Litva | 4766,1 | 7606,4 | 20426,1 |
| eksport | 399,3 | 1438,6 | 5345,9 |
| import | 4366,9 | 6167,8 | 15080,3 |
| saldo | -3967,6 | -4729,2 | -9734,4 |
| Koreya Respublikasi | 17322,4 | 12417,5 | 20048,9 |
| eksport | 299,7 | 437,0 | 3327,9 |
| import | 17022,6 | 11980,4 | 16721,1 |
| saldo | -16722,9 | -11543,4 | -13393,2 |
| Malayziya | 7739,5 | 6541,7 | 14982,7 |
| eksport | - | 4,2 | - |
| import | 7739,5 | 6537,4 | 14982,7 |
| saldo | -7739,5 | -6533,2 | -14982,7 |
| Turkmaniston | 5686,5 | 11938,3 | 14063,6 |
| eksport | 3244,4 | 4910,7 | 8364,5 |
| import | 2442,1 | 7027,6 | 5699,1 |
| saldo | 802,3 | -2116,9 | 2665,4 |

| | | | |
|-------------------|----------------|----------------|----------------|
| Hindiston | 17118,5 | 18378,0 | 12205,6 |
| eksport | 426,5 | 750,5 | 678,4 |
| import | 16692,0 | 17627,5 | 11527,2 |
| saldo | -16265,4 | -16877,0 | -10848,8 |
| Ukraina | 11236,5 | 18132,2 | 11074,7 |
| eksport | 8374,3 | 11441,5 | 6706,5 |
| import | 2862,2 | 6690,7 | 4368,2 |
| saldo | 5512,1 | 4750,9 | 2338,4 |
| Frantsiya | 5258,3 | 9143,9 | 10317,3 |
| eksport | 0,4 | 5,0 | 67,8 |
| import | 5257,9 | 9139,0 | 10249,6 |
| saldo | -5257,5 | -9134,0 | -10181,8 |
| Tojikiston | 5744,0 | 6627,2 | 10316,7 |
| eksport | 4221,3 | 4998,4 | 7001,8 |
| import | 1522,7 | 1628,9 | 3314,9 |
| saldo | 2698,6 | 3369,5 | 3686,9 |
| Pokiston | 3382,7 | 1937,6 | 9849,4 |
| eksport | 3199,6 | 1287,1 | 7458,4 |
| import | 183,0 | 650,5 | 2391,0 |
| saldo | 3016,6 | 636,6 | 5067,5 |
| Eron | 3206,8 | 8204,2 | 8301,6 |
| eksport | 659,4 | 1753,0 | 4709,4 |
| import | 2547,5 | 6451,2 | 3592,2 |
| saldo | -1888,1 | -4698,1 | 1117,1 |
| Indoneziya | 330,1 | 1648,3 | 6539,7 |
| eksport | 145,0 | - | - |
| import | 185,1 | 1648,3 | 6539,7 |
| saldo | -40,0 | -1648,3 | -6539,7 |
| Italiya | 5406,0 | 8975,1 | 6426,1 |
| eksport | 2311,0 | 1926,5 | 1528,7 |
| import | 3095,0 | 7048,7 | 4897,4 |
| saldo | -783,9 | -5122,2 | -3368,7 |

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-dekabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 53,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 2,4 % ga ko'paygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI
(yanvar-dekabr % va ulushi)**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yil yanvar-dekabr oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (2,4 % ga) va jami TSA dagi ulushi 46,6 % ni tashkil etdi.

NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-dekabr)

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlar soni 486 tani tashkil etib, ular tomonidan 581,2 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,4 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (52,0 %), Xar-xil tayyor mahsulotlar (20,8 %) va Oziq ovqat mahsulotlari (18,2 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-dekabr)

| XSST tarkibi | Mln.AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|--|------------------|----------------|------------------|------------------------------|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami eksport | 581,2 | 434,2 | 147,0 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat va tirik hayvonlar | 106,0 | 66,5 | 39,4 | 18,2 | 15,3 | 26,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 1,4 | 1,4 | 0,0 | 0,2 | 0,3 | 0,0 |
| Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari | 8,9 | 2,5 | 6,4 | 1,5 | 0,6 | 4,3 |
| Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar | 1,1 | 0,9 | 0,2 | 0,2 | 0,2 | 0,1 |
| Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 15,4 | 8,7 | 6,7 | 2,6 | 2,0 | 4,5 |
| Ishlab chiqarilgan mahsulotlar | 302,0 | 229,5 | 72,5 | 52,0 | 52,8 | 49,3 |
| Mashina va transport uskunalari | 10,2 | 10,1 | 0,2 | 1,8 | 2,3 | 0,1 |
| Har xil tayyor mahsulotlar | 121,1 | 107,1 | 14,0 | 20,8 | 24,7 | 9,5 |
| Xizmatlar | 15,2 | 7,6 | 7,6 | 2,6 | 1,7 | 5,2 |

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport

hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**
(yanvar-dekabr, % va ulushi)




2022- yilning yanvar-dekabr oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 51,2 %), Qirg'iz Respublikasi (10,8 %), Qozog'iston (7,7 %), Turkiya (7,1 %), Xitoy

Xalq Respublikasi (6,9 %), Polsha (2,0 %) va Germaniya (1,5 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 87,2 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2022- yilning mos davrida 52 davlatga eksport amaliyotini amalga oshirgan.

NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-dekabr, % da)



**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR
(yanvar-dekabr)**

| Davlatlar | Ming.AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|--|-------------------|----------|-------------------------|----------|----------|----------|
| | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. | 2021- y. | 2022- y. |
| Rossiya Federatsiyasi | 206147,6 | 297439,2 | 151,2 | 144,3 | 1 | 1 |
| Qirg'iz Respublikasi | 68113,9 | 62989,2 | 75,8 | 92,5 | 3 | 2 |
| Qozog'iston | 41668,9 | 44615,0 | 93,9 | 107,1 | 4 | 3 |
| Turkiya | 40236,4 | 41256,8 | 2,3 m. | 102,5 | 5 | 4 |
| Xitoy | 75618,6 | 39923,3 | 175,8 | 52,8 | 2 | 5 |
| Polsha | 7448,1 | 11433,0 | 104,0 | 153,5 | 7 | 6 |
| Germaniya | 2943,3 | 8990,5 | 77,5 | 3,1 m. | 11 | 7 |
| Turkmaniston | 4910,7 | 8364,5 | 151,4 | 170,3 | 9 | 8 |
| Pokiston | 1287,1 | 7458,4 | 40,2 | 5,8 m. | 16 | 9 |
| Tojikiston | 4998,4 | 7001,8 | 118,4 | 140,1 | 8 | 10 |
| Ukraina | 11441,5 | 6706,5 | 136,6 | 58,6 | 6 | 11 |
| Litva | 1438,6 | 5345,9 | 3,6 m. | 3,7 m. | 15 | 12 |
| Afg'oniston | 4503,1 | 5271,7 | 129,1 | 117,1 | 10 | 13 |
| Eron | 1753,0 | 4709,4 | 2,7 m. | 2,7 m. | 13 | 14 |
| Koreya Respublikasi | 437,0 | 3327,9 | 145,8 | 761,5 | 19 | 15 |
| Belorussiya | 2282,4 | 2522,4 | 108,1 | 110,5 | 12 | 16 |
| Ozarbayjon | 937,7 | 2404,7 | 103,3 | 2,6 m. | 17 | 17 |
| Gruziya | 1508,4 | 2202,8 | 2,3 m. | 146,0 | 14 | 18 |
| Isroil | 690,4 | 1705,0 | 2,4 m. | 2,5 m. | 18 | 19 |
| Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) | 237,6 | 1655,0 | 34,6 | 7,0 m. | 20 | 20 |

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 15 159,3 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,6 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 96,4 % ga ka'mayganligi kuzatildi.

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 390,3 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 67,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 113,3 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-dekabr)

2022 - yil yanvar-dekabr oyida import hajmi 694,9 mln.AQSh dollarini va 2021-yilning mos davriga nisbatan 116,8 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (32,1 %), Sanoat mahsulotlari (23,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.

IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-dekabr, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat va tirik hayvonlar
- Xom ashyo yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat hisoblanadi
- Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar
- Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar
- Sanoat mahsulotlari
- Mashinalar va transport uskunalari
- Turli xil tayyor mahsulotlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 100,1 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 694,9 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 ming.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI
(2022- yil yanvar-dekabr)**



| XSST tarkibi | Mln.AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|--|------------------|----------------|------------------|------------------------------|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami import | 694,9 | 247,4 | 447,5 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat va tirik hayvonlar | 111,0 | 82,9 | 28,1 | 16,0 | 33,5 | 6,3 |
| Xom ashyo yoqilg'idan tashqari noziq-ovqat hisoblanadi | 39,0 | 31,1 | 7,8 | 5,6 | 12,6 | 1,7 |
| Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar | 20,8 | 20,2 | 0,7 | 3,0 | 8,1 | 0,2 |
| Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lar va mumlar | 29,1 | 8,8 | 20,4 | 4,2 | 3,5 | 4,5 |
| Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar | 90,7 | 21,4 | 69,4 | 13,1 | 8,6 | 15,5 |
| Sanoat mahsulotlari | 161,7 | 58,1 | 103,6 | 23,3 | 23,5 | 23,2 |
| Mashinalar va transport uskunalari | 222,9 | 22,8 | 200,1 | 32,1 | 9,2 | 44,7 |
| Turli xil tayyor mahsulotlar | 19,6 | 2,3 | 17,4 | 2,8 | 0,9 | 3,9 |

Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (33,5 %) Sanoat mahsulotlari (23,5 %) ni MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush Mashina va transport uskunalari (44,7 %), Sanoat mahsulotlari (23,2 %) va hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2021- yilning mos davriga nisbatan kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 26,5 %, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar ulushi 16,0 % ga va mashina va asbob-uskunalar importining 12,7 % ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR
VA XIZMATLAR IMPORTI
(yanvar-dekabr, % va ulushi)**




Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 33,2 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 16,1 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.

TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR

| Davlatlar | Ming. AQSH dollari | | O'sish sur'ati, % da | | O'rni | |
|------------------------------|--------------------|----------|-------------------------|---------|----------|---------|
| | 2021- y. | 2022-y. | 2021- y. | 2022-y. | 2021- y. | 2022-y. |
| Xitoy | 187847,6 | 230783,7 | 109,6 | 122,9 | 1 | 1 |
| Rossiya Federatsiyasi | 102907,6 | 111993,7 | 117,2 | 108,8 | 2 | 2 |
| Qozog'iston | 67131,1 | 67909,4 | 141,9 | 101,2 | 3 | 3 |
| Turkiya | 65050,9 | 60573,9 | 165,6 | 93,1 | 4 | 4 |
| Belorussiya | 19355,7 | 32154,2 | 18,9 m. | 166,1 | 5 | 5 |
| Germaniya | 13305,3 | 26453,8 | 80,6 | 198,8 | 7 | 6 |
| Qirg'iz Respublikasi | 9942,9 | 20642,0 | 114,7 | 207,6 | 9 | 7 |
| Koreya Respublikasi | 11980,4 | 16721,1 | 70,4 | 139,6 | 8 | 8 |
| Litva | 6167,8 | 15080,3 | 141,2 | 2,4 m. | 17 | 9 |
| Malayziya | 6537,4 | 14982,7 | 84,5 | 2,3 m. | 15 | 10 |
| Polsha | 9743,2 | 13271,4 | 3,9 m. | 136,2 | 10 | 11 |
| Hindiston | 17627,5 | 11527,2 | 105,6 | 65,4 | 6 | 12 |
| Frantsiya | 9139,0 | 10249,6 | 173,8 | 112,2 | 11 | 13 |
| Indoneziya | 1648,3 | 6539,7 | 8,7 m. | 4,0 m. | 20 | 14 |
| Turkmaniston | 7027,6 | 5699,1 | 2,9 m. | 81,1 | 13 | 15 |
| Shveytsariya | 3323,0 | 5059,3 | 23,9 | 152,3 | 19 | 16 |
| Italiya | 7048,7 | 4897,4 | 2,3 m. | 69,5 | 12 | 17 |
| Ukraina | 6690,7 | 4368,2 | 2,3 m. | 65,3 | 14 | 18 |
| Latviya | 4261,4 | 3659,8 | 2,7 m. | 85,9 | 18 | 19 |
| Eron | 6451,2 | 3592,2 | 2,5 m. | 55,7 | 16 | 20 |

2021- yining mos davriga nisbatan 68 davlatdan 71 davlatga ko'paydi.

**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI
(2022- yil yanvar-dekabr % da)**



Sakkista yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog`iston, Belarus, Germaniya, Qirg`iz Respublika) jami importning 79,2 % ini tashkil qiladi, bu 550 510, ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunarlar, shuningdek, ularning qismlari importining o`shishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog`iston, Turkiya va Belarus tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo`limi
Tel.:(69)-211-72-00**